

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH

Xalilov Bahromjon Bahodirovich

Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro, Iqtisodiyot
kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Banklar va ular tomonidan amalga oshiriladigan bank faoliyati har qanday mamlakat iqtisodiy tizimida muhim o'rinni tutadi va taraqqiyot sur'atlarini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib sanaladi. Zero samarali ishlovchi bank tizimi moliyaviy mablag'larni iqtisodiyot tarmoqlari, mintaqalar, korxona va tashkilotlar, fuqarolar o'rtasida erkin va tez aylanishini ta'minlaydiki, bu hol o'z-o'zidan tovar va xizmatlar muomallasini tezlashuvi hamda kengayishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, bank ustavi, aksiyadorlik jamiyatni umumiy yig'ilishi, bank kengashi, bank boshqaruvi

Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasidagi ikki pog'onali bank tizimining quyi pog'onasi sifatida xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga mansub va hilma-hil shakldagi korxona, muassasa, tashkilotlar, yakka tadbirkorlar, ayrim fuqarolar uchun universal bank operatsiyalarini amalga oshiruvchi kredit tashkiloti bo'lib hisoblanadi. Banklar jamiyatning pul bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarida vositachilik vazifasini bajaradi va shu yo'1 bilan bankka oid bozor makonini tashkil qiladi. Tijorat banklari amalga oshiradigan asosiy funksiyalardan biri bo'lib jismoniy va yuridik shaxslar pul mablag'larini omonatga jalb qilish hamda jalb qilingan mablag'larni tavakkal qilib o'z nomidan tadbirkorlikka sarmoya joylashtirishdan iboratdir. Banklar vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni ishlab chiqarish oborotiga jalb qilish orqali iqtisodiy taraqqiyotni investitsiyalaydi, davlat va jamiyat yuksalishi uchun zarur iqtisodiy-moliyaviy sharoitni yaratadi.

Tijorat banklari iqtisodiyotning muhim sektori sifatida islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlashning muhim omillaridan bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda 29 ta tijorat banklari bank faoliyatini amalga oshirib kelmoqdalar. Tijorat banklari, qoida tariqasida aksiyadorlik jamiyatni tarzida tashkil etiladi. Bank muassisasi sifatida yuridik va jismoniy shaxslar, chet el yuridik va jismoniy shaxslari ishtiroy eta oladilar. Umumiyligi ko'ra davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari bank muassisasi sifatida qatnashishlari mumkin emas. Ammo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonida, Hukumat qarorlarida maxsus nazarda tutilgan hollarda ushbu shaxslar ham hukumat tashabbusiga ko'ra tashkil etilayotgan banklar faoliyatida muassisasi sifatida ishtiroy etishlari mumkin. Aksiyadorlik tijorat banki ustav kapitalining eng kam

miqdori O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilab qo‘yiladi. Tijorat bankining ustav kapitalida har bir muassisning ishtiroki bu kapitalning qonunchilikda belgilangan miqdoridan oshib ketmasligi lozim.

Aksiyadorlik tijorat banklarida ularning boshqaruvi organi bo‘lib aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi, bank Kengashi va bank Boshqaruvi hisoblanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi – aksiyadorlik tijorat banklarining yuqori organi bo‘lib sanaladi va uning vakolatlari «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonun, bank Ustavi, boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining alohida vakolatlari qatoriga quyidagilar kiradi:

- 1) bank Ustavini tasdiqlash, unga qo‘sishmcha va o‘zgartirishlar kiritish (umumiy yig‘ilishda ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiya egalari bo‘lgan aksiyadorlarning kamida 3/4 qismi yoqlab ovoz berishi orqali);
- 2) bankni qayta tashkil etish yoki tugatish (ovoz beruvchi aksiyadorlarning kamida 3/4 qismi ma’qullaganida);
- 3) bank kengashi a’zolari sonini belgilash, uning a’zolarini saylash, muddatidan oldin kengash a’zoligidan chiqarish (ovoz beruvchi aksiya egalari 3/4 qismidan kam bo‘lmagan ovoz bilan hal etiladi);
- 4) e’lon qilingan aksiyalarining eng yuqori miqdorini belgilash;
- 5) bankning Ustav kapitali miqdorini ko‘paytirish yoki kamaytirish (ovoz beruvchi aksiya egalari 3/4 qismi ovozi bilan hal etiladi);
- 6) o‘z aksiyalarini sotib olish (ovoz beruvchi aksiya egalarining 3/4 qismi ma’qullaganida);
- 7) bank Kengashi tomonidan tayinlangan bank Boshqaruvi Raisini tasdiqlash;
- 8) bank Taftish komissiyasi a’zolarini saylash va ular vakolatini muddatidan oldin to‘xtatish;
- 9) bankning tashqi aksiyalarini tasdiqlash;
- 10) bank yillik hisobotini, balansini, foyda va zaralar hisobini tasdiqlash, foyda va zararlarni taqsimlash (ovoz beruvchi aksiya egalarining 3/4 qismi ovozi bilan hal etiladi);
- 11) bank hujjatlarini tasdiqlash va ularni bank biznes rejasiga bilan taqqoslash, bank Kengashi a’zolariga kompensatsiya va mukofotlar miqdorini belgilash (ovoz beruvchi aksiya egalarining 3/4 qismi ovozi bilan hal etiladi);
- 12) Aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash;
- 13) aksiyalarini bo‘lish yoki jamlash;
- 14) kredit berish, aktiv va passivlarni boshqarish, investitsiyalarni amalga oshirish, mijozlarga yangi bank xizmatlarini ko‘rsatish masalalarida bank tomonidan amalga oshiriladigan siyosatning asosiy yo‘nalishlarini belgilash va boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Bank aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunida belgilab qo‘yilgan muddatlarda hamda tartibda chaqiriladi (mazkur qonunning 64-moddasi).

Bank Kengashi. Aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishlari o‘rtasidagi davrda bank faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish bank Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

«Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunning 22-moddasiga ko‘ra bank Kengashi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- 1) bank faoliyati ustidan nazorat olib borish;
- 2) bank rahbarlarini ishga tayinlash va vazifasidan ozod qilish;
- 3) bank kapitalining muntazam o‘sishini ta’minlash;
- 4) bank siyosatini ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarilishini kuzatib borish;
- 5) bank faoliyatini amalga oshirish chog‘ida qonunchilik talablariga rioxalishini ta’minlash va bank Ustavida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Bank Kengashi kamida besh kishidan iborat bo‘ladi. Uning tarkibiga bank aksiyadorlaridan tashqari bank sohasi olimlari va mutahassislari a’zo sifatida kiritilishlari mumkin. Bank Kengashi majlislarini chaqirish muddatlari, tartibi, masalalarni majlilda muhokama qilish va qarorlar qabul qilish tartiblari «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunda belgilab qo‘yilgan (qonunning 85-moddasi). Bank boshqaruvi Raisini ishga qabul qilish va uning bilan Mehnat shartnomasi tuzish bank Kengashi tomonidan amalga oshiriladi va mehnat shartnomasiga bank Kengashining Raisi imzo qo‘yadi. Bank Kengashi bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi oldida hisob beradi.

Bank boshqaruvi bankning kundalik faoliyatiga rahbarlik qiladigan ijroya organidir va u kollegiallik asosida ish yuritadi. Bank boshqaruviga bank Kengashi tomonidan tayinlanadigan va umumiy majlis tasdiqlaydigan boshqaruv raisi rahbarlik qiladi. Bank boshqaruvi raisi o‘rnibosarlari va bankning boshqa xodimlarini ishga qabul qilish, ishdan bo‘shatish (mehnat shartnomasi tuzish, uni o‘zgartirish, bekor qilish) bank boshqaruvi raisi tomonidan amalga oshiriladi (Boshqaruv va uning Raisi vakolatlari «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunning 86-87 moddalarida belgilab qo‘yilgan). Bank boshqaruvi bank Kengashi va bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi oldida javobgar bo‘ladi. Bank filiallarining rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki roziligi olingani holda bank boshqaruvi tomonidan vazifasiga tayinlanadi yoki lavozimidan ozod qilinadi.

Aksiyadorlik tijorat banklari aksiyadorlarining bankni boshqarish yuzasidan va boshqa masalalarga doir huquqlari, ularning mulkiy hamda boshqa huquqlarini himoya qilish aksiyadorlik huquqiga oid qonunchilik normalari, «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonun va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda shuningdek belgilangan tartibda tashkil etilgan va akkreditatsiyalangan xorijiy banklarning vakolatxonalari ham faoliyat olib borishlari mumkin. Ularni boshqarish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bahodirovich, K. B. (2024). EXTERNAL FINANCING SOURCES FOR BUSINESSES. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 119-124.
2. Khalilov, B. B. (2024). MANAGERIAL ACCOUNTING-THE LANGUAGE OF BUSINESS MANAGEMENT. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 249-255.
3. Bahodirovich, K. B. (2024). FINANCIAL LEVERAGE RATIOS AND ANALYSIS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 418-426.
4. Bahodirovich, K. B. (2023). EVOLUTION OF THE AUDITING PROFESSION IN THE SMART MACHINE AGE. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 450-454.
5. Xalilov, B. (2024). ISSUES OF IMPROVING THE FINANCIAL MECHANISM OF SMALL BUSINESS ENTITIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 747-753.
6. Bakhodirovich, K. B. (2023). International accounting models and their characteristics in the conditions of innovative economy. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 21, 56-60.
7. Xalilov, B. (2024). COBB-DOUGLAS PRODUCTION FUNCTION AND ITS IMPORTANCE IN BUSINESS MATHEMATICS AND ECONOMIC ANALYSIS. *Modern Science and Research*, 3(1), 754-758.
8. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL ELEMENTS OF BUSINESS STABILITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 877-882.
9. Khalilov, B. B. (2024). INTERNATIONAL ACCOUNTING ANALYSIS. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 740-745.
10. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL INDICATORS OF BUSINESS EFFICIENCY IN COMPANIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 835-839.
11. Khalilov, B. (2024). FOREIGN EXPERIENCE IN PERSONNEL MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 974-978.
12. Bahromjon, X., & Nargiza, N. (2023). THE PROCEDURE FOR DRAWING UP FINANCIAL STATEMENTS IN JOINT-STOCK COMPANIES ON THE BASIS OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS. *Modern Science and Research*, 2(10), 805-811.
13. Bahodirovich, K. B. (2024). RISK-BASED FINANCIAL INSTRUMENTS: THEORIES AND CONCEPTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 373-378.
14. Alimova, S. A., & Shavkatovich, P. S. (2022). THE ROLE OF FOREIGN INVESTMENT IN ENSURING THE FINANCIAL SUSTAINABILITY OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 359-364.
15. Abidovna, A. S. (2024). The Importance of Personnel Management in the Operations of an Organization. *Miasto Przyszłości*, 49, 971-975.

16. Alimova, S. A., & Nutfullaevna, K. M. (2022). STATE MANAGEMENT OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY OF ENTERPRISES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 75-80.
17. Abidovna, A. S. (2024). COMMUNICATION PROCESS MANAGEMENT AS A TOOL TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF MODERN ORGANIZATIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 211-217.
18. Abidovna, A. S. (2023). Special directions of tourism development in Bukhara region: problems and solutions. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 21, 51-55.
19. Supiyevna, B. M. (2024). O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIY TADBIRLIKNI RIVOJLANTIRISH VA AHOLINI ISH BILAN BAND ETISH YO'LLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(08), 78-84.
20. Supiyevna, B. M. (2024). TIZIMIDA BANK FINANCIAL SERVICE NUMBER: DEVELOPMENT AND OLD TURGAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 379-385.
21. Jumayeva, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING ORNI VA UNING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 3(6).
22. Bustonovna, J. Z. (2024). DEVELOPMENT OF DIGITAL ECONOMY AND ITS PROSPECTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 285-291.
23. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE.
24. Xudoynazarovich, S. A. (2024). KADRLAR BOSHQARUVI XUSUSIY OTMLARDA: XUSUSIYATLARI, YONDASHUVLARI VA MUAMMOLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 70-77.
25. Shadiyev, A. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM IN ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS. *Modern Science and Research*, 3(8), 10-18.
26. Alisher, S. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 366-372.
27. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE ORGANIZATION AND CAPACITY BUILDING OF EXECUTIVE EMPLOYEE LABOR IN PUBLIC ADMINISTRATION BODIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 939-946.
28. Ibodulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 481-484.
29. Hakimovich, T. M. (2024). Personalni Rag'batlantirish. *Miasto Przyszłości*, 53, 524-531.
30. Hakimovich, T. M. (2024). ZAMONAVIY BOSHQARUV VA RAQAMLASHTIRISH.
31. To'rayevna, S. N. (2023). YANGI IQTISODIYOTDA RAQAMLI MEHNAT.

32. Sodiqova, N. (2024). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSİYALASH SHAROITIDA INNOVATSION SIYOSAT VA UNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
33. Tohir o'g'li, M. T., & To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION SIYOSAT. ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 45-53.
34. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.
35. Akbarovna, N. N. (2024). Oliy Ta'lif Muassasalarining Innovatsion Faoliyat Natijalarini Tijoratlashtirish Muammolari Va Ularni Hal Etish Yo 'llari. *Miasto Przyszlosci*, 54, 857-866.
36. Akbarovna, N. N. (2023). MULKCHILIK MUNOSABATLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI.
37. Naimova, N. (2024). THE COUNTRY'S ECONOMIC POTENTIAL IN DIGITAL ECONOMY AND E-COMMERCE DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 234-239.
38. Akbarovna, N. N. (2023). BULUTLI HISOBBLASH TEKNOLOGIYALARINING IQTISODIYOTDA TURGAN ORNI. *Gospodarka i Innowacje*, 42, 517-520.
39. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.
40. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 286-294.
41. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 191-195.
42. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQOBATNI BAHOLASH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. *Gospodarka i Innowacje*, 48, 715-720.
43. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O 'RNI, SALOHIYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 48-52.
44. Djurayeva, M. S. (2024). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF A MODERN ENTERPRISE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(12), 222-227.
45. Sadilloyevna, D. M. (2024). ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN THE DEVELOPMENT OF THE MODERN ECONOMIC SYSTEM. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 241-248.
46. Sadullayevna, D. M. (2024). BASICS OF DIGITAL MARKETING. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 160-166.

47. қизи Раҳмонқулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
48. Nafisa, R. (2024). Formation of a Strategy for Sustainable Development of the National Economy. *Miasto Przyszłości*, 54, 764-771.
49. Rakhmonkulova, N. (2024). Prospects for the Development of the Economy of Uzbekistan. *JOURNAL OF INTELLECTUAL PROPERTY AND HUMAN RIGHTS*, 3(10), 37-44.
50. Lolaxon, R. (2024). THE ROLE OF MARKETING STRATEGIES IN TOURISM POTENTIAL OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 230-240.
51. Lolakhon, R. (2024). APPLICATION OF THE 4P CONCEPT IN TOURISM. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 138-145.
52. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilishda Soliqlarning O 'Rni. *Gospodarka i Innowacje.*, 53, 205-213.
53. Aziz, I. (2023). O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo'llari. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(5), 191-196.
54. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG 'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 116-122.
55. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O 'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.
56. Azimov, B., Toshev, F., & Raximova, D. TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA.
57. TEMPUS, I. (2016). Towards the ModernisATion of Higher Education InstitutionS in Uzbekistan (MATcHES). *TEMPUS*, 4, 2007-2013.
58. Azimov, B. F., & Gulomov, O. H. (2017). Organizational structures of innovation support services: inter-organizational cooperation associations. *Инновационное развитие*, (6), 35-37.
59. Akhmedov, Y., Asadov, S., & Azimov, B. (2022, December). Two-sided estimation of linear approximation error second-order hypersurfaces. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 2388, No. 1, p. 012124). IOP Publishing.